

QO‘LYOZMA ASARLARGA XOS YOZUV USULLARI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi
yo‘nalishi talabasi: Xamidova Gulinur Alisher qizi*

Ilmiy rahbar:A.U.Muydinova

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti

V.b.,f.f.b.f.d(PhD)

Anotatsiya: Ushbu maqolada yozuv va uning kelib chiqishi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Yozuvning har xil turlari yozuvning rivojlanish bosqichlarida tahlil qilinadi. Bu yozuvning bugungi hayotimizda va tilshunoslikka qadar muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, yozuv turlari misollar yordamida tushuntiriladi va ulardan foydalanish holatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yozuv, shikasta, suls, taliq, alifbo, xatti moriqa, rayhoniy yozuv

Ma’lumki, dunyodagi ko‘pgina moddiy yodgorliklarda qadimgi yozuv turlari aks etgan yozma manbalar ham uchraydi. Yozma yodgorliklarni qidirib topish va ulardagi bitiklarni o‘qish-o‘rganish qadim sivilizatsiyalar va insoniyat tafakkuri tadqiqida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganiladi. Y.V.Knorozovning “Письменность индейцев майя” nomli tadqiqotida xat yozuvlarini, iyeroglyph, grafema (bir ma’noli so‘zlar) va allograflarni tahlil qilgan. Shuningdek, J.Xanter va N.V. Gurov, A.A.Molchanov, V.P.Neroznak, S.Ya.Sharipkin ham bu borada tadqiqotlar olib borganlar.

Shuningdek, qadimgi xat turlariga oid yozma yodgorliklarni qidirib topib, ularning alifbosini tuzish ham keng yo‘lga qo‘yilgan. Respublikamiz qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan qadimgi xat turlariga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar bunga yorqin misol bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Jome’ul-xutut”, “Xat va xattoton”, “Ajoyibut-tabaqot” kabi o‘nlab asarlar shular jumlasidan.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Manbalar xazinasi” fondida saqlanayotgan “Majmu’atul-xutut” asari ham kelajakda alohida tadqiqotlarni talab qiladigan manba bo‘lib xizmat qiladi. Tarixchi, arxeologlarga esa muhim qo‘llanmalardan sanaladi.

XX asr boshlarida ko‘chirilgan mazkur asar Mahmud G‘azzoniy tomonidan tarqim qilingan, ya’ni tuzib chiqilgan. Qo‘lyozmaning muqova va matn o‘lchamlari: 13,5x22; 7,5x15,5 sm. Qo‘lyozma fabrika qog‘oziga taxminan XIX asr oxirlarida ko‘chirilgan. Asardan 60 dan ortiq xat turlari alifbosi o‘rin olgan bo‘lib, unda qadimgi

yozuv turlaridan tortib, o'rta asr yozuvlari, hatto ularning taraqqiy etgan shakllari ko'rsatilgan

Asosiy xatlar sirasiga suls, nasx, ta'liq, diyvoniy, kufiy va riq'a xatlari kiradi. Mazkur xatlarning har biri alohida o'rnlarda qo'llanilgan:

muhaqqaq— qasida va she'rlar yozishda;

suls— ilmiy asarlar va xat yo'l-yo'riqlarida;

rayhoniy va nasx— qissa va xabarlarda;

tavqi'— buyruq va farmonlarda;

riqo'— maktublarda ishlatiladi.

Bu olti asosiy uslubning har biri ingichka va yo'g'on qalamlarda yozilishi natijasida yana o'n ikki xil xatni tashkil etgan

IX–X asrlarda ilk xattotlardan Ibrohim Sikiziy, Yusuf Sijistoniy, Ibn Bavvob va boshqa ustodlar o'ttiz olti tur xatni ixtiro etishgan. Ular quyidagilar

Tumor— ingichka, mayda xat yoki qalam.

Jalil— katta, yo'g'on qalam.

Majmu'— qo'sxilma xat.

Riyosiy— 806-yilda zurreyosatang Fazl ibn Saxlga atalgan xat.

Sulsayn— qalamning uchdan ikki hissasi bilan yozilgan xat.

Nisf— mashq qalamining yarmi (qalam sifati).

Javonihiy— paralel chiziqli xat.

Musalsal— tomonalarini ichiga olib zanjir kabi bog'lab yozilgan xat.

G'ubori xuliya— xatning zeb-u ziynat va oroyishi.

Mansur— nasriy so'zlarda ishlatiladigan qalam.

36 tur xatdan boshqa shuhrat qozongan xat nomlari:

shikasta;

shikasta nasta'liq;

xatti sunbuli;

xatti mehi

jaliy devoni, ijozat, riq'a, shajariy

zulf;

uyg'uriy

xatti musalsal nasta'liq bilan

xatti moriqa;

rumuzod xatlari;

san'atli kufiy xati;

xatti shohiy, xatti Boburiy;

xatti tug'ro, deboj, xatti noxun va boshqalar;

tirnoq bilan bo'rttirib yoziladigan xat.

Arabcha ”nastaliq“ yozuvining paydo bo`lishi olimlar fikricha XIII asrga borib taqaladi. U dastlab ulamolar tomonidan davlat va diniy idoralada foydalanilgan Nastalik ”egilgan“ deb tarjima qilinadi va yumaloq, bir tomonga qiyshaygan harflar tufayli shunday ataladi.

Rayhon yoki Rayhoni (arab. ريحان) – fors-arab xattotligining oltita kanonik yozuv turlaridan biri. Rayhon so‘zi arab va fors tillarida rayhon o’simligini anglatadi. Rayhoni xati muhaqqaq yozuvining rayhon gullari va barglariga qiyoslangan nozik varianti hisoblanadi

Rayhoni xati Abbosiylar davrida Ibn al-Bavvob tomonidan ishlab chiqilgan. Bu xat turini Yoqt al-Musta’simiyanada takomillashtirgan.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan barcha ma’lumotlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki,yozuvning hayotimizdagи ahamiyati biz tasavvur qilganimizdan ko‘ra ko‘proq. Har bir rivojlanayotgan til uchun yozuvning o‘rni beqiyos. CHunki til rivojlanishi uchun ham yozuv kerak. Yozuvlarning barcha turi esa o‘ziga xos vazifani bajaradi. Biz har xil vaziyatlarda har xil yozuv turlaridan foydalanamiz. Faqat asosiy muammo yozuvlardan to‘g’ri aniq foydalanishdir. Buning uchun esa yozuv haqida umumiyl tushunchaga ega bo‘lishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Rahimboy Jumaniyozov Toshkent 1989
- 2.I.Azimov, M.Tojiboyeva, A.G’oziyev O‘zbek tili va adabiyoti filologiya va tillar o‘qitish talim yo‘nalishi talabalar uchun darslik
- 3.www.ziyouz.com kutubxonasi